

FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ODILOVA Nozimaxon Ibroximjon qizi

Bojxona instituti

4-kurs kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15208965>

BOJXONA HUDUDIDA SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLAR VA JAVOBGARLIK ASOSLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bojxona sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar va javobgarlik asoslarining dolzarb masalalar o'rganildi. Jumladan, bojxona hududi va chegarasi, bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar tushunchasi, huquqbuzarliklar turi, bojxona qonunchiligi buzilishining obyekti, obyektiv tomoni, subyekti hamda subyektiv tomonlari, javobgarlikni belgilovchi normalar, huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarning taalluqliligi bo'yicha organlar alohida e'tiborga olingan.

Kalit so'zlar: bojxona hududi, bojxona chegarasi, huquq, huquqbuzarlik, huquqbuzarlikning obyekti, obyektiv tomoni, subyekti hamda subyektiv tomonlari, jinoiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, jazo choralari, surishtiruv hamda dastlabki tergov harakatlari.

ОСОБЕННОСТИ ОСНОВАНИЙ ДЛЯ СОВЕРШЕНИЯ ПРАВОНАРУШЕНИЙ И ОТВЕТСТВЕННОСТИ НА ТАМОЖЕННОЙ ТЕРРИТОРИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены актуальные вопросы основ правонарушений и ответственности, совершаемых в таможенной сфере. В частности, особое внимание было уделено таможенной территории и границам, понятию правонарушений в таможенной сфере, виду правонарушений, объекту, объективной стороне, субъекту и субъективным сторонам нарушения таможенного законодательства, нормам, определяющим ответственность, применимости дел о правонарушениях.

Ключевые слова: таможенная территория, таможенная граница, право, правонарушения, объект, объективная сторона, субъект и субъективная сторона правонарушения, уголовная ответственность, административная ответственность, взыскание, дознание и предварительное расследование.

SPECIFIC FEATURES OF THE GROUNDS FOR OFFENCES AND LIABILITY COMMITTED IN THE CUSTOMS TERRITORY

ANNOTATION

In this article, the current issues of violations and grounds of responsibility in the field of customs were studied. In particular, special attention was paid to the concept of customs territory and border, violations in the customs sphere, the type of offenses, the object, objective side, subject and subjective sides of violations of customs legislation, norms establishing liability, authorities on the relevance of cases of violations.

Key words: customs territory, customs border, law, violation, object, objective side, subject and subjective sides of the offense, criminal liability, administrative liability, criminal enquiry and preliminary investigative actions.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda barcha sohalar rivojiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash vazifasini bajaruvchi bojxona sohasini yanada takomillashtirish bo‘yicha ham qator ishlar amalga oshirilib, uning faoliyati qonun hamda qonunosti hujjatlar bilan mustahkamlab borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabr kunidagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘RQ-502-son qonunida belgilanganidek bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organ bo‘lib, faoliyatida bevosita jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish vazifasini amalga oshiradi.

Shu o‘rinda bojxonaga oid qonun hujjatlarining amal qilish chegarasini belgilab olish uchun bojxona hududini aniqlab olish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 5-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining quruqlikdagi hududi, hududiy va ichki suvlari hamda ular ustidagi havo hududi O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududini (bundan buyon matnda bojxona hududi deb yuritiladi) tashkil etadi deb belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, bojxona hududi sarhadlari O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) qatnashchilariga qator imkoniyatlar va qulayliklar yaratilmoqda. Shunga qaramay bojxona sohasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar soni va noqonuniy tovarlar aylanmasining qiymati, huquqbuzarliklarning sodir etish usullari kun sayin ortib bormoqda. Buning uchun esa sud-huquq tizimini yanada rivojlantirish, qonunchilikni mustahkamlash, bu bo‘yicha xorij tajribalarini o‘rganish va amaliyotga tadbiiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2016-yil 21-oktyabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonlari mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarib, bir necha ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi.

Shu o‘rinda dastavval huquq tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak.

Huquq – davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo‘riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o‘zaro munosabatlarini va boshqalarni tartibga soladigan qonun-qoidalar, me‘yorlar majmui [1].

Huquq va muomala layoqatiga ega subyektlarning davlat tomonidan muhofaza qilinadigan huquqning normalari talablariga zid keluvchi harakat (yoki harakatsizlik)ni sodir etish esa huquqbuzarlik hisoblanadi.

Amalga kiritilayotgan huquq normalari turli sohalar faoliyatini tartibga solishga xizmat qiladi, shuning uchun ham qonunbuzilishi holatlari turli sohalarda yuz beradi. Masalan: ekologiya, sog‘liqni saqlash, saylov va referendumni tashkil etish hamda o‘tkazish, sanoat va qurilish, transport, tadbirkorlik faoliyati, axborot texnologiyalari, shuningdek, bojxona sohasidagi sodir etilayotgan huquqbuzarliklar shular jumlasidan. Yuqoridagilardan kelib chiqib bojxona sohasodagi huquqbuzarliklarga to‘xtalamiz.

Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish tushunchasi qadimgi yunon va qadimgi Rim tarixchilari asarlarida, huquqbuzarlik sifatida esa XIV asrdan uchraydi[2].

Xorijiy davlatlar, xususan Rossiya Federatsiyasining Ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksining 2.1. moddasiga ko‘ra Ma‘muriy huquqbuzarlik - jismoniy yoki yuridik shaxsning noqonuniy, aybli harakati (harakatsizligi) bo‘lib, uning uchun ma‘muriy javobgarlik ushbu Kodeksda yoki Rossiya Federatsiyasining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ta‘sis sub‘ektlarining qonunlarida belgilangan.

Rus olimi M.N. Kobzar-Frolovaning ta'rifiga ko'ra Bojxona sohasidagi m'muriy huquqbuzarlik (bojxona qoidalarini buzish) - bu qonun hujjatlarini buzishning maxsus turi. Bunday qoidabuzarliklarning obyekti ma'muriy huquq normalari, Evroosiyo iqtisodiy Ittifoqi, Rossiya Federatsiyasining bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir [3].

Shuningdek, Skuridina Olga Olegovnaning fikriga ko'ra ma'muriy javobgarlikning boshlanishi uchun har qanday bojxona qoidalari buzilishida ma'muriy huquqbuzarlik tarkibining obyektiv belgilari mavjud bo'lishi kerak. Ularning mavjudligi, shuningdek, subyektiv belgilari bilan birgalikda, huquqbuzarlikni amalga oshirgan shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortish imkonini beradi. Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar obyektining masalasi ma'muriy huquqshunoslikda uzoq yillar davomida munozarali bo'lib kelmoqda. Buni quyidagi sabablarga ko'ra tushuntirish mumkin: birinchidan, qonunchilikda bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning obyekti sifatida jamoat munosabatlarining turlari aniq ko'rsatilmagan; ikkinchidan, bunday huquqbuzarliklar bir vaqtning o'zida bir nechta himoya qilinadigan jamoat munosabatlariga zarar yetkazishi mumkin [4].

Yuqoridagilardan kelib chiqib bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar tushunchasiga mualliflik ta'rifimizni keltirib o'tamiz.

Bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar deganda, O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi to'g'risidagi qonun hamda qonunosti hujjatlari va O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar, qimmatliklar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruv (shu jumladan, bojxona rejimlari) bilan bog'liq jarayonlarning belgilangan tartibiga, bojxona to'lovlarini to'lashga, boj imtiyozlarini berish va ulardan foydalanishga tajovuz qiluvchi shaxslarning har qanday huquqqa zid tusdagi xatti-harakati yoki harakatsizligi tushuniladi.

Shuningdek, bojxona qonunchiligi buzilishining obyekti, obyektiv tomoni, subyektiv hamda subyektiv tomonining mavjudligi ushbu huquqbuzarliklarni o'rganishda alohida ahamiyat talab etadi.

Bojxona qonunchiligi buzilishining obyektlari: bojxona sohasiga oid qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish tartibi;

- O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tilishida bojxona nazorati;

- O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tilishida bojxona rasmiylashtiruv;

- O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalariga bojxona to'lovlarini qo'llash va undirish tartibi;

- tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona imtiyozlari berish va ularni qo'llash tartibi.

Bojxona qonunchiligi buzilishining obyektiv tomoni deganda ijtimoiy xavfliligi jihatdan huquqning buzilishini keltirib chiqaruvchi shaxsning harakat yoki harakatsizligi tushiniladi.

Bojxona qonunchiligi buzilishining subyektiv tomoni bo'lib, huquqbuzarlikni sodir qilgan paytda o'n olti yoshga to'lgan (*MJK 13-moddasi, JK 17-moddasi*), aqli raso, jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Bojxona qonunchiligi buzilishining subyektiv tomoni – shaxsning g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizligi qasd yoki ehtiyotsizlik oqibatida yuz berganligidir.

Shu bilan birga, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzgan shaxs sodir etgan huquqbuzarligi uchun ijtimoiy havflilik darajasidan kelib chiqib ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (*MJK*) hamda Jinoyat kodeksi (*JK*) asosida belgilangan sanksiyalar doirasida jazo chorasi qo'llaniladi.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar – Jinoyat kodeksining bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog'liq boblarida javobgarliklar nazarda tutilgan, davlatning iqtisodiyot asoslari, jamoat xavfsizligi va axloq normalariga zarar keltiradigan ijtimoiy xavfli qilmishlardir [5].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida bojxona sohasidagi jinoyatlar iqtisodiy asoslarga qarshi jinoyatlar hamda jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar tarkibiga kiradi. “Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish” (Jk 182-modda) va “kontrabanda (Jk 246-modda)” jinoyatlari shular jumlasidandir. Jinoyat protsessual kodeksi (JPK)ning 345-moddasiga ko‘ra ushbu moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha dastlabki tergov davlat xavfsizlik xizmati tergovchilari tomonidan olib boriladi.

Bundan tashqari, dispozitsiyasida bojxona qonunchiligi buzilishi nazarda tutilgan jinoyatlar bo‘yicha ham javobgarlik belgilangan va ushbu moddalar bo‘yicha JPKning 381²-moddasiga ko‘ra bojxona organlari surishtiruv ishlarini olib boradi. Jumladan:

1. Shaxsga qarshi jinoyatlar:

- pornografik mahsulotlarni tayyorlash, **olib kirish**, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish (*Jk 130-modda*);

- tazyiqni, zo‘ravonlikni yoki shavqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, **olib kirish**, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish (*Jk 130¹-modda*);

2. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar:

- soliq yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash (Jk 184-modda);

3. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar:

- diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, **olib kirish** yoki tarqatish (*Jk 244³-modda*);

- uchuvchisiz uchadigan apparatlarini qonunga xilof ravishda **olib kirish**, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish (*Jk 244⁴-modda*);

- pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi (*bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tish*) (*Jk 250¹-modda*).

Shu o‘rinda diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda olib kirish jinoyi huquqbuzarligini keltirib chiqaruvchi oqibatlarini hisobga olgan holda shaxsga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritish mumkin.

Bojxona sohasidagi ayrim huquqbuzarliklarda shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishda, xususan qilmishni kvalifikatsiya qilishda ma‘muriy preyuditsiyani qo‘llash zarurati tug‘iladi. Ma‘lumki, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 37-moddasiga binoan ma‘muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o‘tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida yangi ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo‘lsa, mazkur shaxs ma‘muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 20.02.2023-yildagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-son qarorida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 182-moddasining birinchi qismi bo‘yicha jinoiy javobgarlik tovar va transport vositalarini ko‘p miqdorda qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o‘tkazganlik uchun ma‘muriy javobgarlikka tortilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 227¹⁹, 227²⁰, 227²¹-moddalari va 227²²-moddasining birinchi qismi) shaxs ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng bir yil davomida yana shunday huquqbuzarliklardan birini ko‘p miqdorda sodir etgan holdagina kelib chiqishi belgilab qo‘yilgan.

Bojxona sohasidagi ma‘muriy huquqbuzarlik – qonun hujjatlariga binoan ma‘muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan himoya qilinadigan huquqlarga tajovuz qiluvchi g‘ayrihuquqiy, aybli(qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlikdir.

Shu o‘rinda bojxona sohasidagi ma‘muriy huquqbuzarliklarning turlariga to‘xtalib o‘tsak. MJtK ning “Boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlik” (XVI bob) nomli bobining 227, 227¹-227²⁷ moddalarida bojxona qonunchiligi buzilishi uchun ma‘muriy javobgarlikni belgilovchi normalar ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu moddalar bo'yicha Bojxona organlari, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi organlari (227¹⁴-modda (qishloq xo'jaligiga oid qismi)) ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organlar hisoblanadi. Ushbu moddalarga nisbatan belgilangan sanksiyalar doirasida jarima yoki musodara jazo chorasini qo'llaniladi.

Shulardan bojxona organlariga MJtKning 262-moddasida ko'rsatib o'tilgan 227, 227¹, 227², 227³, 227⁵, 227⁶, 227⁷, 227¹⁰, 227¹¹, 227¹²-moddalari, 227¹³-moddasining uchinchi qismi, 227¹⁶-moddasining birinchi qismi, 227²²-moddasining ikkinchi qismi taalluqlidir. Bojxona organlarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari bojxona organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga va jarima tariqasidagi ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rishga hamda jarima tariqasidagi ma'muriy jazo choralarini qo'llashga bojxona organlarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshiradigan bosh inspektorlari, katta inspektorlari (inspektorlari) haqlidir.

Shuningdek, dispozitsiyasida bojxona qonunchiligi buzilishi uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi normalar mavjud:

1. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik:

- ov qilish va baliq ovlashning taqiqlangan qurollarini yoki vositalarini tayyorlash, **olib kirish**, saqlash, tashish yoki yuborish, olish yoxud sotish (MJtK 90¹-modda);

- qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar turlarini saqlashga zarar keltiradi deb topilgan hayvonlar yoki o'simliklarni qonunga xilof ravishda **olib kelish** (MJtK 93-modda);

2. Savdo, tadbirkorlik va moliya sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik:

- O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzish (MJtK 171¹-modda);

- soliqlar yoki yig'imlarni to'lashdan bo'yin tovlash (MJtK 174-modda)

3. Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik:

- diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, **olib kirish** yoki tarqatish (MKtK 184²-modda);

- pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi (MJtK 185¹-modda);

- pornografik mahsulotni tayyorlash, **olib kirish**, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish (MJtK 189-modda);

- tazyiqni, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, **olib kirish**, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish (MJtK 189¹-modda);

Shuningdek, bojxona sohasidagi huquqbuzarliklarning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- **birinchidan**, harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek ichki ishlar organlarining hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar ma'muriy huquqbuzarlik uchun intizom ustavlariga muvofiq javobgar bo'lsalar, bojxona qoidalarini buzganligi uchun umumiy asoslarda ma'muriy javobgar bo'ladi;

- **ikkinchidan**, ma'muriy jazo qo'llanishning bir yillik muddati ashyolarni bojxona munosabatlarini tartibga soladigan qonunchilik asosida musodara qilish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi;

- **uchinchidan**, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilganligiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda huquqbuzarlik takroriy sodir etilganligi e'tiborga olinmaydi, bundan ushbu MJtKning 321-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hol mustasno;

- **to'rtinchidan**, bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilganligi Davlat bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali qayd etilgan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmaydi;

- **beshinchidan**, bojxona muassasalarida shaxsiy ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish bojxonaga doir qonunchilik bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

- **oltinchidan**, bojxona sohasidagi ayrim huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etgan tadbirkorlik subyektining mansabdor shaxslari yoki xodimlari yoxud tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar yo'l qo'yilgan buzilishlarni huquqbuzarlik aniqlangan paytdan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan va (yoki) yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa huquqbuzarlik bo'yicha ish tugatiladi;

- **yettinchidan**, ayrim huquqbuzarliklarda shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishda, xususan qilmishni kvalifikatsiya qilishda ma'muriy preyuditsiya qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yaratilayotgan imkoniyatlardan unimli va xolis foydalanuvchi TIF ishtirokchilari bilan bir qatorda, qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarini to'liq anglamay, uni turli noqonuniy yo'llar bilan aylanib o'tishga, qonunga xilof xatti-harakatlarni amalga oshirishga urinayotgan shaxslar ham ko'p uchramoqda.

Buning natijasida mamlakatimizda sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, jumladan, bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar soni ham ortib bormoqda. Bu esa huquqbuzarliklar bo'yicha ish yurituvchi surishtiruv va tergov hodimlaridan yuksak mahorat va ziyraklik, ilmiy salohiyat, vaziyatga to'g'ri va o'z vaqtida baho bera olish, zimmasiga yuklatilgan vazifalarga mas'uliyat bilan yondashish, qolaversa soha faoliyatida foydalanilayotgan axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini muntazam oshirib borishni taqazo etadi. Shu bilan birga milliy qonunchiligimizni mustahkamlab borish, huquqbuzarliklar bo'yicha elektron ish yuritishda xorijiy mamlakatlar tajribasini milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilish, ish yuritish jarayonini raqamlashtirish va doimiy ravishda ilg'or axborot texnologiya vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

REFERENCES. ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ.

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. <https://izoh.uz/word/huquq>.
2. J.M.Ermashev. Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish tushunchasi va ushbu qilmish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan qonunchilik hujjatlarining rivojlanishi.//Huquqiy tadqiqotlar jurnali 8-jild 2-son 58-62-betlar.Toshkent 2023. <https://www.tadqiqot.uz/index.php/law/article/view/6866/6482>
3. М.Н.Кобзар-Фролова. Особенности привлечения к административной ответственности за правонарушения в сфере таможенного дела (нарушение таможенных правил). Научная электронная библиотека «КиберЛенинка». Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-privlecheniya-k-administrativnoy-otvetstvennosti-za-pravonarusheniya-v-sfere-tamozhennogo-dela-narushenie-tamozhennyh/viewer>
4. О.О.Скуридина. Объективные признаки административных правонарушений в таможенной сфере.//Международный научный журнал Молодой ученый № 44 (386) / 2021. стр 144. <https://moluch.ru/archive/386/84963/>
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti «Bojxona kichik ensiklopediyasi».